

**SHARQ MUTAFAKKIRLARI DIDAKTIK ASARLARI MISOLIDA
PEDAGOGIK MADANIYAT VA USTOZLIK MAQOMI TO‘G‘RISIDAGI
QARASHLAR**

Umarova Sitora Muxlisovna

*Buxoro Davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston. Pedagogika kafedrasи
dotsenti*

Ernazarova Zulkumor Muxammadi qizi

Pedagogika kafedrasи magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan Sharq mutafakkirlarining asarlari, kashfiyotlari, zamonaviy ilm-fan va taraqqiyotga qo‘sghan hissalari, ma’naviyat, madaniyat va ta’lim-tarbiya sohalaridagi beqiyos yuksalishga va ustozlik maqomi to‘g‘risida berilgan qarashlari haqida ma’lumotlarni o‘rganish bugungi kunda ma’naviyat tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi har bir mutaxassisning vazifasi ekanligi ajdodlarimiz asrlar mobaynida yaratgan ma’naviy merosni o‘sib kelayotgan avlod, butun xalqimiz poydevori ekanligi alohida ajratib ko’rsatilgan. Sharq mutaffakirlarining pedagogik qarashlaridan foydalanib, bolajak pedagoglarning manaviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)larini rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ham keltirib o’tilgan.

Abstract. In this article, the author examines information about the works, discoveries, contributions to modern science and development, the incomparable rise in the fields of spirituality, culture and education, and the views given by the author about the status of mentors. It is highlighted that the duty of every specialist engaged in character education is the spiritual heritage created by our ancestors over the centuries, which is the foundation of the growing generation and our entire nation. Using the pedagogical views of Eastern thinkers, suggestions and recommendations were also made regarding the development of spiritual and moral qualities (competencies) of young pedagogues.

Абстрактный. В данной статье автор рассматривает информацию о трудах, открытиях, вкладе в современную науку и развитие, несравненный подъем в области духовности, культуры и образования, а также взгляды автора на статус наставников. что обязанностью каждого специалиста, занимающегося воспитанием характера, является духовное наследие, созданное нашими предками на протяжении веков, которое является фундаментом подрастающего поколения и всей нашей нации. С использованием педагогических взглядов восточных мыслителей также были сделаны предложения и рекомендации по развитию духовно-нравственных качеств (компетенций) молодых педагогов.

Tayanch so'zlar va tushunchalar: mutaffakir, asarlar, ta'lif, tarbiya, ustozlik, madaniyat, meros.

Key words and concepts: thinker, works, education, upbringing, mentorship, culture, heritage.

Ключевые слова и понятия: мыслитель, произведения, образование, воспитание, наставничество, культура, наследие.

Bugungi kunda mamlakatimizda buyuk mutaffakirlarimizning madaniy meralarini, asalarini va qarashlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa bizning bugungi kun ta'lif jarayonimizga katta hissa qo'shamdi. Ta'lif islohotlaridan asosiy maqsad - xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi

– ajdodlarimizning boy merosi, asarlari va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatdir”.¹

Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Ixso al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari togrisida»,² kabi asarlarida allomaning ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari ifodasini topgan bo'lib, uning pedagogik qarashlarida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Biz bilamizki, Forobiy birinchi bo'lib ta'lim, tarbiya va milliy qadryatlarimizga ta'rif bergen. U “Insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l: ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi” deb ta'kidlagan. “Ta'lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilatdir bu – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so'z o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi” deydi. “Har ikkalasi birlashsa, yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi” deb o'z asarlarida har bir shaxsda manaviy, axloqiy fazilatlarni rivojlantirish har bir davr uchun eng dolzarb masala ekanligini, bunda ustozlarning maqomi juda muhim ekanligini ta'kidlaydi. Forobiy ustozning axloqiy fazilatlari deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko'pchilik manfaatini yuqori qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning eng muhimi har bir pedagog bilimli, madaniyatli va ma'rifatli bo'lishidir. Shuning uchun ham Forobiy ma'naviyat va madaniyat tushunchasiga aql bilan uzviy bog'liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi.³ Haqiqatdan ham Abu Nasr Forobiy o'rta asr davri ilm - fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o'zidan keyin juda boy ilmiy va ma'naviy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya, pedagogika, tarbiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlartizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish

² K. Hashimov, S.Nishanova "Pedagogika tarixi" Toshkent - 2005y. 81-bet.

³ K. Hashimov, S.Nishanova "Pedagogika tarixi" Toshkent - 2005y. 82-bet.

Abu Ali ibn Sino O'rta asrlar madaniyati, daholari qatoriga kiradi, ularni o'z ruhiyati, kuchi qomusiy aqli, ilmiy-falsafiy intilishlari va talablari bilan uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlari bilan qiyoslash mumkin. Ularning asarlarida ilmiy teranlik, tabiatni o'rganishdagi tajribaga asoslangan ijodiy yechim, falsafiy tahlil kengligi, mehnatkash inson manfaati haqida qayg'urish chuqur va uzviy bog'liqligi ko'zga tashlanadi. Ko'p tomli qomusiy "Shifo" hamda mashhur 5 kitobdan iborat "Tib qonunlari" asarlari buning yaqqol isbotidir. O'z asarlarida mantiqiy madaniyat yutuqlarini umumlashtirib hamda ularni o'zining shaxsiy yangiliklari bilan to'ldirilgan holda, Ibn Sino YUNESKOning Bosh konferensiyasini XX sessiyasi qarorida ko'rsatib o'tilganidek, falsafa, mantiq, tibbiyot, tabiatshunoslik, sotsiologiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik she'riyati rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shib, dunyoning barcha mamlakatlarda ilm-fan taraqqiy etishiga katta ta'sir o'tkazgan.

Ibn Sino yuksak axloqiy sifatlarni shakllanishida ilmlli ustoz har doim muhim ro'l o'ynaydi deb bilgan. Olim ustozlikni shunday tariflaydi:

- har qanday vaziyatda ham o'z kasbini sevib, mehr bilan bilim beruvchi;
- ma'naviyat va tarbiyani har doim ishida birinchi o'ringa qo'yadigan;
- o'z kasbida katta mas'uliyat egasi.

Ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Abu Rayhon Beruniyning «Mineralogiya», «Geodeziya», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydana» asarlarida insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo'ladi. Beruniy ta'limotiga ko'ra inson kamolotida uch narsa muhim ro'l o'ynaydi:

1. Irsiyat;
2. Muhit;
3. Tarbiya.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. U ustozlar o'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va hokazoga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

Beruniyning fikricha, madaniyat insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy muhit – jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib to'padi. Bu sifatni insonlarda takomillashtirishda ustozlarning maqomi juda katta ekanligini aytib o'tkan. Abu Rayhon Beruniy ham madaniy tarbiyaga quyidagicha ta'rif beradi. "Madaniyatatlilik yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va tarkib topadi". Mutafakkirlarning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, ular ustozlarning madaniyati, mehnati, qobiliyati va aql-zakovatini ulug'laydi, undagi qudratga ishonadi, ustoz mehnatining tantana qilishi kerakligini tinmay targ'ib qiladilar.

Yuqorida mutafakkirlarning pedagogik asarlarini o'rganish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, inson kamolotida pedagogik madaniyat va ta'lim-tarbiyaning ahamiyatiga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarkibidagina emas, balki mustaqil risolalarida axloqiy masalalarni chuqur ilmiy-amaliy jihatdan ifodalangan, ilm-fan sohasida tarbiyani targ'ib qiluvchi fanlari orqali ham tadqiq etish, o'rganish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi. Har bir buyuk mutafakkirlarimizning asarlarida pedagogik madaniyat va ustozlik maqomi to'g'risida ko'pgina qarashlar keltirilgan va bu qarashlar orqali ustozlarni pedagogik faoliyatini mazmun mohiyati rivojiga katta hissa qo'shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish.
2. K. Hashimov, S.Nishanova "Pedagogika tarixi" Toshkent - 2005y. 81-bet.
3. Abu Rayxon Beruniy.Tanl. asarlar. 1 t. - Toshkent, 1968, 151-bet.